

**FIRDAVSIYNING “SHOHNOMA” ASARI QAHRAMONLARI. ULARNING  
KEYING DAVR EPIK POEZIYASIGA KO`CHISHI****Xoliqulova Zarnigor Azim qizi****Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o`qitish fakulteti****2-bosqich talabasi****06984404@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15672374>****Annotatsiya**

Ushbu maqolada buyuk fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiyning jahon durdonalari, dunyo eposlari orasida va abadiy insoniyat merosi orasida millatning oliy adabiy durdonasi hisoblangan “Shohnoma” asaridagi afsonaviy va mifologik qahramonlar bilan bir qatorda tarixiy personajlar ta’rifi va ularning keying davr adabiyotiga ko’chishi haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** Epik doston, poeziya, mifologik obrazlar, afsonaviy qahramonlar, tarixiy personajlar Jamshid, Zahhok, Rustam, Suxrob.

**Аннотация:** В статье рассматривается описание исторических персонажей, легендарных и мифологических героев и их миграция в более позднюю литературу в произведении великого персидско-таджикского поэта Абулкасима Фирдоуси «Шахнаме», которое считается высшим литературным шедевром нации среди мировых шедевров, мировых эпосов и вечным наследием человечества.

**Ключевые слова:** Эпический эпос, поэзия, мифологические образы, легендарные герои, исторические персонажи Джамшид, Заххок, Рустам, Сухроб.

**Abstract:** This article discusses the description of historical characters, along with legendary and mythological heroes, and their migration to later literature in the work of the great Persian-Tajik poet Abulqasim Firdaws, "Shahnama", which is considered the highest literary masterpiece of the nation among the world masterpieces, world epics, and the eternal heritage of humanity.

**Keywords:** Epic epic, poetry, mythological images, legendary heroes, historical characters Jamshid, Zahhok, Rustam, Sukhrob.

Oʻzbek adabiyoti tarixida qadimgi shohlar haqidagi rivoyatlar, afsonaviy va epik dostonlardan iborat asarlar juda koʻplab uchraydi. Bularga misol qilib Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Firdavsiyning “Shohnoma” kabi nodir asarlarini misol qilib olishimiz mumkin. Bu asarlar ichida Firdavsiyning “Shohnoma” asari oʻz davrining eng yirik epik asarlaridan biri boʻlib, oʻzida qadimgi Forsning tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini mujassam etgan.

Abulqosim Firdavsiy 941-yilda Eronning Tus shahri yaqinidagi Boj qishlogʻida dehqon oilasida tugʻilgan. U dastlab qishlogʻidagi diniy maktabda, soʻng Tus shahri madrasalarida tahsil oladi. Ijodkor yoshlik chogʻlaridayoq Sharq xalqlari tarixini zoʻr zavq bilan oʻrganadi, koʻhna rivoyatlarni yozib oladi. Aytishlaricha, Xuroson hukmdori Mahmud Gʻaznaviy shoirga “Shohnoma”ni yozishni topshiradi va asardagi har bir misra uchun bir dinor oltin tanga berishni vaʼda qiladi. Ammo keyinchalik hukmdor vaʼdasidan tonib shoirga 120 dona kumush tanga beradi. Firdavsiy bundan gʻazablanib, bu tangalarni mulozimlarga taqsimlab beradi va Gʻznaviyni xasislik va pastkashlikda ayblovchi hajviya yozadi. Shundan soʻng shoir oʻz ona

yurtidan quvg`in qilinadi. Ijodkorning “Shohnoma” asari haqida mulohaza yuritadigan bo`lsak, ushbu asar 30-35 yillik mehnat samarasi bo`lib, 60 ming baytdan iborat. Asar dastlab Abu Mansur Daqiy tomonidan “Xudoynoma” degan nom bilan yozila boshlagan. Ammo ijodkor asarning boshlanish vaqtlarida Quli tomonidan qatl ettiriladi va bu ishni Firdavsiy davom ettiradi. Asarda qariyb 4000 yil ichida Eron zaminida hukmronlik qilgan 4 ta sulolaga mansub 50 ta podshoh hayotiga tegishli voqea-hodisalar o`z aksini topgan. Bundan tashqari “Shohnoma”da peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar va somoniylar kabi sulolalarga mansub bahodirlar va podshohlar haqida qahramonlik va ishqiy romantik dostonlar keltirilgan bo`lib, ularda ta`limiy-axloqiy mazmundagi lavhalar, pand-nasihatlar, lirik she`rlar ham o`rin olgan. Unda pahlavonlar, shohlar, amaldorlar, lashkarboshilar, olimlar, san`atkorlar, hunarmandlar, dehqonlardan iborat bir nechta obrazlar tasniflangan. Bulardan birinchisi, mifologik obrazlar bo`lib, bu qismda “Avesto”da qayd etilgan qadimgi miflar va kosmogonogik tasavvurlarda aks ettirilgan Qayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid kabi personajlarni uchramiz. Ikkinchi afsonaviy qahramonlik qismi bahodirlar haqidagi Eron rivoyatlaridan iborat bo`lib, bularga Som, Narimon, Zol, Rustam, Gev, Bijon kabi obrazlar kiritilgan. Uchinchi qism esa tarixiy personajlardan tuzilgan bo`lib, Iskandar, Bahrom Go`r, Mazdak, Anushirvon, Xusrav Parviz kabi qahramonlar tavsifini o`z ichiga oladi. Asarda Zahhok haqida, “Rustam va Suxrob”, “Zol va Rudoba” hamda “Bijon va Manija” kabi dostonlar ham o`rin olgan.

“Shohnoma”dagi afsonaviy qahramonlar orasida Rustam bilan birga Kova obrazi alohida ahamiyatga molik. Ahrimanning fitnasi bilan saltanatni egallab, ming yil davomida toj egasi bo`lgan Zahhok mamlakat ahlini qon qaqshatib, yelkasidan o`sib chiqqan ilonlarni ularning miyasi bilan parvarish etadi. Temirchi Kova mamlakatda zulm va zo`ravonlik avjiga chiqqan bir davrda adolatsizlikka qarshi bosh ko`taradi. U ofat va falokat timsoli bo`lgan Zahhokka qarshi sabr kosasi to`lgan xalq ommasini yetaklaydi va xalq qo`zg`oloniga rahbarlik qiladi. Natijada xalq ommasining junbushga kelgan to`lqini Zahhok va uning saltanatini yemirib tashlaydi. Ammo Firdavsiy tasavvurida yangi barpo etilajak mamlakatga oddiy temirchi bo`lgan Kovaning xalqqa boshchilik qilishi g`ayritabiiy edi. Shu sababli ham u Zahhokning o`rniga Jamshidning o`g`li Faridunning saltanat hukmdori bo`lgani va uning podshohlik davrida el-u yurtda adolat tantana qilganini tasvirlashga alohida e`tibor beradi. Shu tarzda Faridun ushbu asarda odil podshoh sifatida talqin etiladi. Asardagi eng qayg`uli dostonlardan biri “Rustam bilan Suxrob” bo`lib, unda asar qahramoni Rustam o`zining mashur oti Raxsh bilan ovga chiqib Turon o`lkasiga borib qoladi. U yo`lda otini o`g`irlatib qo`yadi va tasodifan

Shamangan shahriga kirib boradi. Shamangan podshosi uni izzat-ikrom bilan kutib oladi va ziyofat boshlaydi. Bu orada shohning qizi Taxmina Rustamni yaxsh ko`rib qoladi va ular turmush qurishadi. Rustam o`z yurtiga qaytib ketar chog`ida farzandi uchun ayoliga bir gavhar berib ketadi. Oylar o`tib Taxmina o`g`il farzandli bo`ladi va unga Suxrob deb ism qo`yadi. Oradan bir necha yil o`tib Suxrob onasidan otasi Rustam ekanligini bilib oladi va uni izlab yo`lga chiqadi. Suxrob yo`lda ko`plab mardliklar ko`rsatib, Afrosiyobgacha dong taratadi. U makkorlik bilan Eronga qarshi jangga otlanadi. Jang maydonida ota va o`g`il bir-birini tanimasdan to`qnash keladi va ota o`g`lining ko`ksiga xanjar uradi. O`limi oldidan Suxrob o`zini tanitadi, Rustam esa hasratlar ichida qoladi. Asarda Jamshid obrazi orqali inson qobiliyatlari va mag`rurlikning qanchalik xavli bo`lishi yoritilgan bo`lsa, Suxrob obrazi orqali esa ota-o`g`il o`rtasidagi rishtalarning ahamiyati va taqdir oldidagi ojizlik kabi belgilar

ko'rsatiladi. Bundan tashqari dostonida Rustamning otasi- Zal obrazi uchraydi, uning hikoyasi ham "Shohnoma" asarida muhim o'rin tutadi. Zalning xarakteri ko'plab kuchli shaxsiy xususiyatlarga ega. Ushbu hikoyada ota-onaga bo'lgan hurmat, shuningdek, meros va ajdodlarga nisbatan sadoqat kabi mavzular aks ettirilgan.

Firdavsiy vafotidan so'ng, "Shohnoma" jiddiy o'zgarishlar va buzilishlarga duch keldi. Bizgacha yetib kelgan fors tilidagi eng qadimgi "Shohnoma"ning ro'yxati 1276-1277- yillarga to'g'ri keladi. Ushbu asarning ta'siri nafaqat Eron, balki boshqa turli mamlakatlarning adabiyotida ham sezilarli o'rinni egallagan. Asardagi qahramonlar va voqealar ko'plab keyingi davr epik poeziyasiga, jumladan, turk, o'zbek, qozoq adabiyotlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Ularning tasviri, idealizatsiyasi va qadriyatlari keying davr ijodkorlari tomonidan o'zlashtirildi va yangi bir mazmunlar bilan boyitildi. Rustamning kuchi, jasorati va axloqi ko'plab adabiyotda ilgari surilgan qahramon obrazlariga asos bo'ldi. Masalan, o'zbek epik poeziyasi va "Alpomish" dostonidagi qahramonlar, bundan tashqari Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" dostonidagi Baxtiyor kabi obrazlar Rustamning ideal qahramon obrazidan ilhomlangan. "Shohnoma" ta'sirida bir nechta tarixiy va tasavvufiy dostonlar ham yaratilgan: « Iskandarnoma"lar, mutasavvuf shoirlar yozgan pandnoma dostonlar, "Shahanshohnoma" nomlari bilan ijod qilingan asarlar shular jumlasidandir. Faqat Hamidulloh Qazviniyning

"Zafarnoma" asari "Shohnoma"ning davomi bo'lib, 1335- yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Sohib nomli shoir ham 1320-yilda yozilgan "Daftari dilkusho" asarida "Shohnoma"ni davom ettirgan. Turk shoiri Uzun Firdavsiy ham Boyazidga atab "Shohnoma" yozgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Shohnoma" asari faqat Eron tarixini aks ettiribgina qolmay, balki isoniyatning umumbashariy qadriyatlarini ifodalovchi eng muhim epik asarlardan biridir. Bu asar keyingi davr epik poeziyasiga o'zining qahramonlari va ularning xarakterlari orqali katta ta'sir ko'rsatdi. Doston jahon sivilizatsiyasi durdonalaridan biri bo'lib, uning mifologik qahramonlarida Vatanga muhabbat, shaxsga hurmat, yuksak insoniy axloq, tafakkur musaffoligi va adolat, vijdonli va halollik, vatanparvarlik va umuminsoniy insonparvarlik g'oyalari mujassamlashgan. Rustam, Jamshid, Suxrob kabi qahramonlar va ularning hikoyalari adolat, sadoqat, kurash va taqdir kabi mavzularni bir necha yillardan buyon tarannum etib kelmoqda.

### References:

#### Используемая литература:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma". Dushanbe-1964
2. M.Choriyeva "Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarida falsafiy ta'limotlar tahlili" dissertatsiya. Buxoro – 2023.
3. <https://arxiv.uz>
4. <https://wikipedia.org>